

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINI KREATIV FAOLIYATGA YO'NALTIRISH.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10138681>

Ravshanova Xafiza Komilovna

Sam vil PYMO'MM o'qituvchi.

+998996235311 xafizakomilovna@gmail.com

Annatatsiya

Zamonaviy ta'lif tizimi tarbiyachilardan ilmiy manbalarni o'zlashtirish, ulardan pedagogik jarayonda samarali foydalanishni bilish bilan bir qatorda, har bir faoliyat jarayon subyektlariga, ta'lif-tarbiya mexanizmlariga nisbatan kreativ yondashuvni ham talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda pedagoglarni yosh avlodda turmush va ishlab chiqarishning turli sohalariga oid dastlabki mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi texnologik ta'lif jarayoniga kreativ yondashuvga va ta'lif innovatsiyalarini yaratishga tayyorlash muammosi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning intellektual resurslarini yaratish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'z

Tarbiyachi, kasb, kreativlik, bola, tajriba, faoliyat, texnalogiya, maktabgacha ta'lif

Abstract

The modern education system requires educators to master scientific resources, to know how to effectively use them in the educational process, as well as to be creative in relation to the subjects of each active process, educational and educational mechanisms. From this point of view, the problem of teaching educators to creatively participate in the process of technological education, which serves to form the initial labor skills in various fields of life and production in the younger generation, and to implement educational innovations, is to use the intellectual resources of socio-economic development and to expand the opportunities for competitive personnel training. is of particular importance.

Keys word

Educator, profession, creativity, child, experience, activity, technology, preschool education.

Аннотация

Современная система образования требует от педагогов владения научными ресурсами, умения эффективно использовать их в образовательном процессе, а также творческого подхода к субъектам каждого активного процесса, образовательным и воспитательным механизмам. С этой точки зрения проблема

обучения педагогов творческому участию в процессе технологического образования, служащему формированию у подрастающего поколения начальных трудовых навыков в различных сферах жизни и производства, реализации образовательных инноваций, заключается в использовании Особое значение имеет интеллектуальный ресурс социально-экономического развития и расширение возможностей конкурентоспособной подготовки кадров.

Ключевые слова

Воспитатель, профессия, творчество, ребенок, опыт, деятельность, технология, дошкольное образование.

Respublikamiz amalga oshirilayotgan ilmiy pedagogik va metodik tadqiqotlar doirasida tarbiyachilarni kreativ yondashuv asosida texnologik ta'lim samarasini oshirishga tayyorlash imkoniyatlari yaratilgan bo'lib, bu borada kreativlik va innovatsion tafakkurni shakllantirish muhim mezon vazifasini bajaradi. Shuningdek, Respublikamizda shu kunlarda tubdan yangilangan moyoriy-huquqiy hujjatlar hamda yaratilgan moddiy-texnik baza tarbiyachilarni texnologik ta'limga kreativ yondashuvga tayyorlash asosida izlanuvchanlik sifatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzlusiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyanuvchilarining ta'lim-tarbiyasi yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev e'tiborida turgan dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2017-yil 16-avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloq qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan edi. Bu boradagi olib borilgan tahlillar natijasida qisqa vaqtida uchta yirik hujjat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori, 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi – faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli qarori imzolangan.

Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida qabul qilingan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida maktabgacha ta'lim sohasi uzlusiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining

bolalar intellektual rivojlanishdagi o'rni hamda, respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligi ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi" PQ-4312-sonli qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, bola huquqlariga oid meyoriy-huquqiy hujjatlar asosida ta'lim sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik, milliy o'zlikni anglash g'oyalarni yanada chuqur singdirish, "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlashga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish kabi fikrlar ilgari surilgan.

Jumladan, 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida"gi PQ-3955-sonli qarori bilan hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari manaviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faollikni tarbiyalashni taqozo etadi. Shu jihatdan qaralganda maktabgacha ta'lim, uzlusiz ta'lim tizimida muhim o'rinni tutadi.

Maktabgacha ta'lim - bola tug'ilganidan to yetti yoshgacha har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarini, maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida talim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, metodi va shakllarini o'z ichiga oladi. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi"da esa "...maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish" masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yildi". Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan mazkur sohadagi islohotlari natijasida, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruktsiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar uzlusiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sanalmish maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat hamda nodavlat tarmog'ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlashda dasturilamalga aylandi. Maktabgacha ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar asosida faoliyatlarni tashkil etish uchun tarbiyachi o'z

ustida ishlashi, erinmasligi, izlanishlar olib borishi o'zining xizmat vazifasini sidqidildan bajarmog'i darkor.

Davlat ta'lif standartlari barcha o'quv dasturlari oldiga tarbiyachi shaxsining mustaqil fikrlash, o'zgalar fikrini anglash va tushunish, baholay olish va hurmat qilishi, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda erkin ifoda eta olish darajasida o'stirishni talab etmoqda. Buning natijasida esa tarbiyachida nazariy qoidalarni amalda qo'llay olish malakasini o'stirish asosida ijodiy fikrlash malakasi tarkib topadi. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, faoliyatlarni qiziqarli tashkil etish ta'lif jarayonini ijodiy hamda samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Yuqorida bayon qilingan dalillar maktabgacha ta'lif tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga ta'lif-tarbiya ishlarini tashkil etishda tarbiyachin

Bugungi kunda inson aql idroki, ilm-fan taraqqiyoti mahsulini kuzatar ekanmiz, har qadamda shaxs yaratuvchanligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelamiz. Jumladan, virtual olam, sensorli aloqa vositalari, turli rang va shakldagi meva-sabzavotlar va poliz ekinlari, tuproqsiz mo'l-hosil olish va boshqalar. Bularning barchasi shaxs tafakkurining oliy mahsulidir. Bugun biz uchun odatiy hisoblangan samolyot, vertolyot, kompyuter, telefon, hatto chiroqlar ham qachonlardir tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok, tafakkur samarasi natijasida yaratilgan. G'ildirakning kashf etilishi insoniyat kreativligining muhim natijasi, desak adashmaymiz. Bugun bunday yangiliklar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratib, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislarga talab va ehtiyoj yuqori. Ushbu ijtimoiy ehtiyojdan kelib chiqib, yosh avlodni ham kreativ tafakkur yuritishga o'rgatish dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rishimiz mumkin.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmuni ustida to'xtalib o'tamiz. Kreativlik (lot., ing. "create" - yaratish, "creative" - yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qibiliyati tushuniladi. Uning tagzamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi [43; 699-b].

Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'nnaviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan

stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. Dunyo taraqqiyoti tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyat taraqqiyoti ta'limning takomillashishi va taraqqiy etishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan bizning ta'lim tizimimizda ham tezkorlik bilan islohotlar olib borilmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimiga kreativlik haqidagi yondashuv va qarashlarning kirib kelishi uning jahon ta'lim tizimi bilan integratsiyalashib borayotganligidan dalolat beradi. Bugun boshqa sohalardagi kabi ta'lim tizimiga ham kreativlik tushunchasi shaxs va jamoa munosabatlariga, jamoaning shaxs kamoloti ta'siriga alohida e'tibor qaratadi: "Har bir inson o'z tabiatini bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga krita olmaydi, ularga erishish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiatini bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishish uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi".

Inson qobiliyatini ikkiga: tug'ma va keyin erishilgan qobiliyat turlariga bo'lgan Forobiy insonni kamol toptirish jarayonini inson o'z hayoti davomida ilm, hunar o'rganish, axloqiy qonun-qoidalarni egallashi va san'atni hayotiy tajribasi bilan boyitishi orqali sodir bo'lishini ta'kidlaydi. [2.34; 39-b].

Abu Ali ibn Sino inson faoliyatida, dunyonи o'rganishda aqlga, ilmga tayanishga ustuvorlik beradi va muammo yechimida mantiq ilmiga asoslanish lozimligini ta'kidlaydi: "Aql tarozusida tortib ko'rilmagan har qanday bilim asossizdir. Shu bois mantiq ilmini o'rganmoq juda muhim." Uning fikricha, ilm olishdan to'xtash esa insonning halok bo'lishi demakdir: "Ruh-shamchiroqqa, bilim-ana shu shamchiroqdan taralayotgan yog'duga, Allohning zakosi moyga o'xshaydi. Shamchiroq yonishdan to'xtamas ekan, sen tiriksan. Agar u o'chsa, sen halok bo'lasan". [2.15; 36-b].

Ma'rifatparvar olimlardan biri Abdulla Avloniyning ilm, ijod va ma'naviy va jismoniy komillikka, maqsadga erishmoqlikning asosiy shartlaridan biri sifatida sa'y va g'ayratni ko'rsatadilar. "Bir ishga mashhg'ul bo'lgan kishilar vaqtning o'tganini bilmas, yalqov kishilar uchun bir soatni o'tkazish qiyomatdan qiyindur.

G'ayrat vujudimizga quvvati mas'ud va baxtiyor bo'lishimizga sababdur. Shuning uchun har birimiz sa'y qilub, o'z kuchimiz ila maishatimizga kerak bo'lgan narsalarni topib, boshqalarga muhtoj bo'lmay rohat-farog'atda yashamoq lozimdur. Sihatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatimiz, alhosil, butun hayotimiz harakatimizga bog'lidur. Harakatlik kishilar tezgina maqsudlariga yeturlar. Yalqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lub xorlikda qolurlar". [2.2; 21-b].

Demak, kreativlik individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida kreativlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, o'tkir zehnni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik kasbiy kompetentlikning muhim omili sifatida aks etadi.

Amabaylning yondashuvi nuqtai nazarida ifodalanishicha, kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" [2.3;81-b.] demakdir. Ko'plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o'rtaсидаги aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o'rtaсида hech qanday bog'liqlik yo'q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 30.04.2023. lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 23.09.2020. lex.uz
3. Abdullayeva Sh. Pedagogicheskiye texnologii razvitiya poznovatelnih tvorcheskix sposobnostey mladshix shkolnikov: diss. kand. ped. nauk. - T.:UzNIPI.2005. - 120 b.
4. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - 97 b.
5. <http://www.aza.uz>
6. <http://www.saviya.uz>.
7. <http://www.ziyo.net.uz>.
8. <http://www.pedagog.uz>.

9. <http://www.edu.uz>